



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

NAVRO‘Z INSONIYATNING NOMODDIY MADANIY MEROSI SIFATIDA

Bobur Ismoil o‘g‘li Avloqulov

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, tayanch doktorant

Annotatsiya

Mazkur maqolada Navro‘z bayramining kelib chiqish tarixi, uning ma‘naviy – madaniy ahamiyati hamda insoniyat nomoddiy madaniy merosi sifatidagi o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, Navro‘zning UNESCOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosining Rerezentativ ro‘yxatiga kiritilish jarayoni, xususan, 2009 va 2016 – yillarda YUNESKO Hukumatlararo qo‘mitasining 4–11–sessiyalarida qabul qilingan qarorning mazmuni yoritilgan. Maqolada Navro‘zning xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik, hamjihatlik va bag‘rikenglikni mustahkamlashdagi o‘rni hamda uni asrab-avaylashning bugungi kundagi dolzarbligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Navro‘z, nomoddiy madaniy meros, YUNESKO, Rerezentativ ro‘yxat, milliy qadriyatlar, madaniy meros, madaniy hamkorlik.

НАВРУЗ КАК НЕМАТЕРИАЛЬНОЕ КУЛЬТУРНОЕ НАСЛЕДИЕ ЧЕЛОВЕЧЕСТВА

Бобур Исmoil угли Авлокулов

Ташкентский государственный университет востоковедения, базовый докторант

Аннотация

В данной статье анализируется история праздника Навруз, его духовное и культурное значение, а также его место в качестве нематериального культурного наследия человечества. Рассматривается также процесс включения Навруза в Репрезентативный список нематериального культурного наследия человечества ЮНЕСКО, в частности, содержание решения, принятого на 4-й-11-й сессиях Межправительственного комитета ЮНЕСКО в 2009 и 2016 годах. Статья научно обосновывает роль Навруза в укреплении дружбы, солидарности и толерантности между народами, а также актуальность его сохранения в наши дни.

Ключевые слова: Навруз, нематериальное культурное наследие, ЮНЕСКО, Репрезентативный список, национальные ценности, культурное наследие, культурное сотрудничество.

NAVRUZ AS THE INTANGIBLE CULTURAL HERITAGE OF HUMANITY

Bobur Ismoil o‘g‘li Avloqulov

Tashkent State University of Oriental Studies, Doctoral student

Abstract

This article analyzes the history of the Navruz holiday, its spiritual and cultural significance, and its place as an intangible cultural heritage of humanity. It also discusses the process of including Navruz in the UNESCO Representative List of the Intangible Cultural Heritage of Humanity, in particular, the content of the decision adopted at the 4th-11th sessions of the UNESCO Intergovernmental Committee in 2009 and 2016. The article scientifically substantiates the role of Navruz in strengthening friendship, solidarity, and tolerance between peoples, and the relevance of its preservation today.

Keywords: Navruz, intangible cultural heritage, UNESCO, Representative List, national values, cultural heritage, cultural cooperation.

Navro‘z – insoniyatning eng qadimiy va boy ma‘naviy qadriyatlaridan biri bo‘lib, u asrlar davomida Sharq xalqlarining madaniy hayoti, urf-odatlarini hamda milliy an‘analarida muhim o‘rin egallab kelmoqda. Ushbu bayram tabiatning uyg‘onishi, yangi yilning boshlanishi, inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlik, mehr-oqibat hamda hamjihatlik timsoli sifatida qadrlanadi. Ayniqsa, Markaziy Osiyo xalqlari hayotida Navro‘z azaldan tinchlik, do‘stlik va ezgulik g‘oyalarini targ‘ib etuvchi umumxalq bayrami sifatida nishonlanib kelinadi.

Bugungi globallashuv jarayonida milliy qadriyatlar va madaniy merosni asrab-avaylash masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, YUNESKO tomonidan Navro‘zning Insoniyat nomoddiy madaniy merosining Rerezentativ ro‘yxatiga kiritilishi uning xalqaro miqyosdagi tarixiy va madaniy ahamiyatini yana bir bor tasdiqladi. Mazkur e‘tirof bayramning nafaqat bir xalq yoki

hududga, balki butun insoniyat madaniyatiga daxldor bebaho meros ekanligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasida Navro'z bayramini asrab-avaylash va nishonlash bilan bog'liq tashkiliy-huquqiy asoslar muntazam takomillashtirib borilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrda PQ-405-sonli "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va targ'ib qilishni rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi [1] qarori, Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-aprelda 256-sonli "Nomoddiy madaniy meros namunalarini ro'yxatga kiritish yoki undan chiqarish bilan bog'liq davlat xizmatlarini ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi [2] qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 7-martda 07/26/82/0209-sonli "2026-yilgi Navro'z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi [3] qarori milliy madaniy merosni asrash va targ'ib qilishning muhim mexanizmlaridan biri hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolani yozishda tarixiylik, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv hamda ilmiy manbalarni tahlil qilish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida Navro'zning kelib chiqishi, rivojlanish bosqichlari va uning insoniyat nomoddiy madaniy merosi sifatidagi ahamiyati tarixiy manbalar asosida o'rganildi. Shuningdek, YUNESKOning nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilishga oid hujjatlari, xususan, 2009 va 2016-yillarda qabul qilingan qarorlar tahlil qilindi.

NATIJALAR

O'zbek xalqining madaniy merosida xalq ijod qilgan va katta ijtimoiy ahamiyatga ega turli bayramlar, ommaviy o'yinlar, mavsumiy va hunar-kasb marosimlari alohida o'rinni egallaydi. Bayramlar va marosimlar ijtimoiy hamda shaxsiy hayotning barcha tomonlarini qamrab oluvchi, kishilar o'zaro munosabatlarining turli jihatlari va shakllarida namoyon bo'luvchi muayyan urf-odatlar va an'analar, axloqiy prinsiplar va huquqiy tartibotlarning tarixan shakllangan yig'indisidir. Ularning muhim belgilari va xususiyatlari barqarorligi va ommaviyligi, rivojlanishdagi takroriyliigi, davomiyligi va uzluksizligidadir. Odat tusiga kirgan marosimlar kishilar xulq-atvorini boshqarar ekan, nafaqat jamoatchilik fikrlari nufuziga, balki qabul qilingan va qaror topgan odatiy qonun-qoidalar kuchiga ham suyanadi [7; 96-b.].

O'zbek xalqi orasida eng keng tarqalgan, milliy tusga ega bo'lgan urf-odatlardan mavsumiy marosimlar diqqatga sazovordir. Iso Jabborov o'zining "O'zbeklar: turmush tarzi va madaniyati" nomli asarida o'zbek mavsumiy marosimlarini quyidagi turkumlarda tasnif etgan: 1) qishda o'tkaziladigan gap-gashtak, yasa-yusun kabilar; 2) bahorgi marosimlar – Navro'z, shoxmoylar (qo'sh chiqarish), lola yoki qizilgul sayli, loy tutish, "sust xotin" kabilar; 3) yozgi marosimlardan "qovun sayli", "choy momo" va hokozolar; 4) kuzgi marosimlar – hosil yig'imi bilan bog'liq "mehrjon", "oblobaraka", "shamol chaqirish", "uzum sayli" kabilar.

Navro'z bayrami Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq va Kavkazorti davlatlarida uzoq davrlardan beri nishonlanib kelmoqda. Bu bayram asli dehqonchilik kalendari bilan bog'liq bo'lib, Yerning shimoliy yarim sharida bahorgi kecha bilan kunduz teng kelgan kunlar — 20–21-martda boshlanadi. O'sha davrda butun tabiat uyg'ona boshlaydi, yer bag'ridagi barcha maxluqot va mavjudotlarning, qurt-qumursqalar, o'simlik va o't-olanlarning jonlanishi ro'y beradi. Bunday yangilanish jarayonining boshlanishi shamsiya (Quyosh) yili hisobida 21-martga to'g'ri kelgan birinchi yangi kunni Navro'z deb ataganlar. O'rta asrning buyuk mutafakkiri Abu Rayhon Beruniy mazkur yil hisobining boshlanish oyi hisoblangan farvardin oyi to'g'risida gapirib, bunday yozadi: "Navro'z yangi yilning birinchi kuni bo'lib, uning forscha nomi hali shu ma'noni taqozo etadi. Navro'z eronliklar ziylari bo'yicha o'tmish zamonlarda, ular yillarini kabisam qilgan vaqtlarida Quyoshning saraton burjiga kirish paytiga to'g'ri kelar edi. So'ngra u orqaga surilgach, bahorda keladigan bo'ldi. Endi u bahor yomg'irining birinchi tomchisini to'kishidan gullar ochilguncha va o'simlik unib chiqq boshlaguncha davom etgan vaqtda keladi. Shuning uchun Navro'z olamning boshlanishi va yaratilishiga dalil qilingan" [7; 97-b.].

Qadimda ajdodlarimiz Navro'z kunlari qish manzillari – qishloqlardan yozgi mehnat va hordiq maskanlari – yozloqlarga ko'chib o'tishgan. Dalalarda bahorgi ekin ishlari boshlanib ketgan. Dehqonlar yerga qo'sh solishgan. Jamoa-jamoa bo'lib, hashar-osharlar uyushtirilgan. O'tgan ajdodlar ruhi yod qilingan. Ularning mozorlari obodonlashtirilib, ko'kalamzorlashtirilgan. Ommaviy ravishda mevali va manzarali daraxtlar o'tqazilgan [6; 91-b.].

Mana shunday uzoq davrlardan beri nishonlanib kelinayotgan xalqlarning an'anaviy bayrami YUNESKO tomonidan insoniyatning nomoddiy madaniy merosi sifatida Reprerentativ ro'yxatiga kiritilgan.

MUHOKAMA

Navro'z bayramining YUNESKOning Rerezentativ ro'yxatiga kiritilishi 2009-yil 28-sentyabrdan 2-oktyabrgacha Birlashgan Arab Amirliklarining Abu-Dabi shahrida o'tkazilgan YUNESKOning "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish" bo'yicha Hukumatlararo qo'mitasining 4-sessiyasi (4.COM) bilan bog'liq. Ushbu sessiyada O'zbekiston, Ozarbayjon, Hindiston, Eron, Qirg'iziston, Pokiston va Turkiya davlatlari tomonidan Navro'zni Insoniyat nomoddiy madaniy merosining Rerezentativ ro'yxatiga kiritish uchun nomzod qilib ko'rsatildi. Bu e'tiborga olindi va quyidagicha ta'riflandi: Navro'z, Novruz, Nooruz yoki Nevruz yangi yil va bahorning boshlanishini, jumladan, Ozarbayjon, Hindiston, Eron, Qirg'iziston, Pokiston, Turkiya va O'zbekistonni qamrab oluvchi keng geografik hududda nishonlaydi. U har yili 21-martda nishonlanadi, bu sana dastlab astronomik hisob-kitoblar bilan belgilanadi. Navro'z avlodlar o'rtasida va oilalar ichida tinchlik va birdamlik qadriyatlarini, shuningdek, yarashuv va yaxshi qo'shnichilikni targ'ib qiladi, shu bilan xalqlar va turli jamoalar o'rtasida madaniy xilma-xillik hamda do'stlikka hissa qo'shadi [4].

Sessiyada 00282-nomzodlik faylida keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib, Navro'z, Novruz, Nooruz yoki Nevruz Rerezentativ ro'yxatga kiritish mezonlariga javob beradi, deb qaror qilindi [4]:

– Navro'z oila va butun jamoada qo'llaniladigan turli urf-odatlardan, jumladan, an'anaviy o'yinlar, oshpazlik an'analari, musiqa, raqs, og'zaki an'analar va hunarmandchilikdan iborat bayram bo'lib, tegishli jamoalarning madaniy o'ziga xosligining asosiy qismini tashkil etishi;

– elementning Rerezentativ ro'yxatga kiritilishi madaniyatlar o'rtasida madaniyatlararo muloqotni hamda o'zaro hurmatni rag'batlantirishi, shu bilan birga elementni kelajak avlodlarga yetkazishni kuchaytirishi;

– bir qator himoya choralari, jamoalar va davlatlarning majburiyatlari bilan hokimiyat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va mahalliy jamoalar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga, mintaqaviy tarmoqni yaratishga, hunarmandchilik va boshqa tegishli san'at sohalarida jamoat o'qitish markazlarini yaratishga hamda inventarizatsiyalarni amalga oshirishga qaratilganligi;

– nominatsiya mahalliy jamoalar, madaniy guruhlar, akademik muassasalar, amaliyotchilar va elementni himoya qilish bilan bog'liq shaxslarning qizg'in qo'llab-quvvatlashi bilan kutib olingani va ularning nominatsiyani ishlab chiqish uchun roziligi olingani;

– element har bir nomzod ko'rsatgan davlatning holatiga qarab inventarizatsiyalarga turlicha kiritilgani.

Madaniy merosning dinamik tabiatini hisobga olgan holda, 2016-yilda Efiopiyaning Addis-Ababa shahrida YUNESKOning "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish" bo'yicha 11-sessiyasi (11.COM) bo'lib o'tdi. Sessiyaning asosiy mazmun-mohiyati dunyo xalqlarining urf-odatlarini, marosimlarini, an'analari va xalq og'zaki ijodi namunalarini xalqaro darajada muhofaza qilish mexanizmlarini takomillashtirishdan iborat edi. Ushbu yig'ilish davomida turli davlatlar tomonidan taqdim etilgan nominatsiyalar ko'rib chiqilib, ularning Insoniyat nomoddiy madaniy merosining Rerezentativ ro'yxatiga kiritilish masalasi muhokama qilindi. Navro'z nominatsiyasi qayta ko'rib chiqildi.

Geografik qamrov jihatdan Afg'oniston, Iroq, Qozog'iston, Tojikiston va Turkmaniston davlatlari qo'shildi va ishtirokchi davlatlar soni 12 taga yetdi. Yangilangan [5] qaror bayramning turlicha nomlanishlarini (Navruz, Novruz, Navro'z, Nooruz, Nevruz) yagona madaniy fenomen sifatida birlashtirdi.

Ishtirokchi davlatlar sonining kengaytirilishi Navro'zning transmilliy nomoddiy madaniy meros elementi sifatidagi maqomini yanada mustahkamladi. Mazkur holat Navro'zning muayyan bir xalq yoki hudud doirasidan chiqib, turli millat va xalqlarni yagona madaniy qadriyat asosida birlashtiruvchi umuminsoniy meros namunasi ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, bayramning YUNESKO Rerezentativ ro'yxatiga kengaytirilgan tarkibda kiritilishi madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish, xalqlar o'rtasidagi o'zaro hurmat va bag'rikenglik tamoyillarini mustahkamlash hamda tarixiy-madaniy aloqalarni yanada chuqurlashtirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Bundan tashqari, Navro'zning ko'p millatli madaniy fenomen sifatida e'tirof etilishi uning xalqaro madaniy diplomatiya vositasi sifatidagi rolini ham kuchaytirdi. Chunki mazkur bayram bilan bog'liq urf-odatlar, marosimlar va an'analar turli xalqlarning tarixiy xotirasi, ma'naviy qadriyatlari hamda madaniy identikligini o'zida mujassam etadi. Shu jihatdan, YUNESKO doirasida qabul qilingan mazkur qaror nomoddiy madaniy merosni asrash va targ'ib qilish borasidagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim omillardan biri bo'ldi.

XULOSA

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, Navro'z insoniyat sivilizatsiyasining eng qadimiy va boy nomoddiy madaniy meros namunalaridan biri hisoblanadi. Ushbu bayram asrlar davomida Sharq xalqlarining ijtimoiy-madaniy hayotida muhim o'rin egallab, milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analarni

oʻzida mujassam etib kelgan. Navroʻz nafaqat bahor va yangilanish timsoli, balki tinchlik, hamjihatlik, bagʻrikenglik, mehr-oqibat hamda inson va tabiat oʻrtasidagi uygʻunlik gʻoyalarini targʻib qiluvchi muhim maʼnaviy hodisa sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Navroʻzning kelib chiqish tarixi, uning shakllanish bosqichlari va turli xalqlar madaniyatidagi oʻrni tarixiy hamda ilmiy manbalar asosida tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, Navroʻz asrlar davomida avloddan-avlodga oʻtib kelayotgan noyob madaniy anʼana sifatida xalqning tarixiy xotirasi, maʼnaviy dunyoqarashi va milliy identikligini aks ettiradi. Shu jihatdan, u nafaqat bir xalq yoki mintaqaning qadriyati, balki umuminsoniy madaniy meros sifatida eʼtirof etilishi bilan ahamiyatlidir. Shuningdek, YUNESKO tomonidan Navroʻzning Insoniyat nomoddiy madaniy merosining Rerezentativ roʻyxatiga kiritilishi uning xalqaro miqyosdagi madaniy va maʼnaviy nufuzini yanada oshirdi. Xususan, 2009-yilda YUNESKO Hukumatlararo qoʻmitasining 4-sessiyasida Navroʻzning dastlabki nominatsiyasi qabul qilinishi hamda 2016-yilda Addis-Ababa shahrida boʻlib oʻtgan 11-sessiyada kengaytirilgan nominatsiyaning tasdiqlanishi ushbu bayramning xalqaro madaniy hamkorlikni mustahkamlashdagi oʻrnini yana bir bor namoyon etdi. Mazkur qarorlar Navroʻzning xalqlar oʻrtasidagi oʻzaro hurmat, doʻstlik va bagʻrikenglikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi noyob madaniy hodisa ekanini tasdiqlaydi. Bugungi globallashuv sharoitida milliy va maʼnaviy qadriyatlarni asrab-avaylash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, Navroʻzni saqlash, uni ilmiy jihatdan tadqiq etish hamda yosh avlodga yetkazish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Oʻzbekistonda Navroʻzni davlat darajasida keng nishonlashga qaratilgan qaror va tashabbuslar, xalq sayillari, madaniy-maʼrifiy tadbirlar hamda xalqaro hamkorlik dasturlari ushbu nomoddiy madaniy merosni rivojlantirish va targʻib qilishga xizmat qilmoqda. Demak, Navroʻz bugungi kunda nafaqat tarixiy-madaniy bayram, balki xalqlar oʻrtasidagi madaniy integratsiya, maʼnaviy birlik va umuminsoniy qadriyatlarni mustahkamlovchi muhim xalqaro madaniy fenomen sifatida namoyon boʻlmoqda. Uni asrab-avaylash va kelajak avlodga yetkazish esa har bir jamiyatning maʼnaviy taraqqiyoti va madaniy barqarorligini taʼminlashdagi muhim omillardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy oʻrganish va targʻib qilishni rivojlantirishga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida // Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2023-yil 25-dekabrda PQ-405-sonli qarori // Lex.uz.
2. “Nomoddiy madaniy meros namunalarini roʻyxatga kiritish yoki undan chiqarish bilan bogʻliq davlat xizmatlarini koʻrsatishning maʼmuriy reglamentini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-aprelda 256-sonli qarori // Lex.uz.
3. “2026-yilgi Navroʻz umumxalq bayramiga tayyorgarlik koʻrish va uni oʻtkazish toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 7-martda 07/26/82/0209-sonli qarori // Lex.uz.
4. UNESCO. Decisions of the Intergovernmental Committee for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage. — URL: UNESCO ICH Decisions 4.COM/13.03
5. UNESCO. Decisions of the Intergovernmental Committee for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage. — URL: UNESCO ICH Decisions 11.COM 10.b.1
6. Sattor M. Oʻzbek udumlari. — Toshkent: Choʻlpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007. — 192 b.
7. Jabborov I. Oʻzbeklar: turmush tarzi va madaniyati. — Toshkent: Oʻqituvchi, 2003. — 206 b.